



TANQIDIY NAZAR, TAHLILY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'UYALAR



LOYIHA INSTITUTLARIDA INSON RESURSLARINI BOSHQARISHNING AMALDAGI HOLATI: “O‘ZMILLIYBANK” AJ MISOLIDA

Amriddinov Azamat Zafar o‘g‘li

Bank-moliya akademiyasi magistratura bosqichi tinglovchisi

THE CURRENT STATE OF HUMAN RESOURCE MANAGEMENT IN PROJECT INSTITUTIONS: THE CASE OF “O‘ZMILLIYBANK” JSC

Amriddinov Azamat Zafar og‘li

Master’s Degree Student, Banking and Finance Academy

Annotation: *This paper examines the human resource management (HRM) system of “O‘zmilliybank” Joint Stock Company (JSC), one of the largest financial institutions in Uzbekistan. Human resources in the bank are recognized as the main capital ensuring organizational efficiency, financial stability, and service quality. The study highlights the four key directions of the bank’s HR policy: recruitment and adaptation, personnel administration, employee training and development, and compensation with benefits. The analysis explores both strengths and challenges of the current system, with particular attention to factors influencing project-based activities, including organizational, legal, and practical aspects. Special attention is also given to the role of young specialists and women employees, reflecting national reforms aimed at strengthening gender equality and youth employment. The bank’s organizational structure—based on corporate governance principles and consisting of management bodies, central departments, and over 130 regional branches—is also outlined. The findings provide relevant insights for project institutions and financial organizations seeking to improve their HRM practices.*

Keywords : *Human Resource Management, Banking Sector, “O‘zmilliybank” JSC, Recruitment, Training and Development, Compensation, Corporate Governance, Uzbekistan.*

“O‘zmilliybank” AJ faoliyatida ham inson resurslari bankning barcha tashkiliy jarayonlarini amalga oshiruvchi asosiy kapital sifatida e’tirof etiladi. Bankning moliyaviy barqarorligi, mijozlar bilan ishlashdagi samaradorligi va xizmatlar sifati bevosita xodimlar malakasi va ularning loyihaviy vazifalarga jalb etilish darajasiga bog‘liqdir. Shu sababli “O‘zmilliybank” AJ da inson resurslarini boshqarish tizimini tahlil qilish bank misolida loyiha institutlari uchun dolzarb xulosalar chiqarish imkonini beradi.

Mazkur bo‘limda “O‘zmilliybank” AJ misolida inson resurslarini boshqarishning amaldagi holati o‘rganilib, mavjud tizimning afzalliklari va muammoli jihatlari tahlil qilinadi. Shuningdek, loyihaviy faoliyatda xodimlarni boshqarishga ta’sir etuvchi tashkiliy, huquqiy va amaliy omillar ko‘rib chiqiladi.



TANQIDIY NAZAR, TAHLILY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'UYALAR



O'zbekiston Respublikasi bank-moliya tizimida inson resurslarini boshqarish masalasi so'nggi yillarda alohida e'tiborga olinmoqda. Chunki banklar nafaqat moliyaviy xizmatlar ko'rsatish, balki iqtisodiyotdagi yirik loyihalarni moliyalashtirishda ham asosiy vositachi hisoblanadi. Shunday yirik moliyaviy muassasalardan biri bu — "O'zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy faoliyat Milliy banki" AJ (O'zmilliybank) bo'lib, u mamlakatda xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlikda bir qator investitsiya loyihalarini amalga oshiradi. Mazkur jarayonda kadrlar siyosati, xodimlarni to'g'ri tanlash va boshqarish muhim ahamiyat kasb etadi.

"O'zmilliybank" AJ kadrlar siyosati asosan to'rt yo'nalishda olib boriladi.

- Kadrlarni tanlash va ularni adaptatsiya qilish
- Kadrlar administratsiyasi
- Xodimlarni o'qitish va rivojlantirish
- Kompensatsiya va imtiyozlar

Bank tizimida faoliyat yurituvchi to'rt asosiy yo'nalish, kadrlar siyosatini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur yo'nalishlar doirasida xodimlarni tanlash, ishga joylashtirish hamda mehnat faoliyatini qonun hujjatlari asosida rasmiylashtirish jarayonlari amalga oshiriladi. Shuningdek, ular O'zbekiston Respublikasi mehnat qonunchiligi doirasida xodimlarning huquq va manfaatlarini himoya qilish, kasbiy faoliyati davomida yuqori malakali mutaxassis sifatida shakllanishiga ko'maklashish bilan tavsiflanadi. Bu jarayonda qo'shimcha ta'lim dasturlari, zamonaviy o'quv kurslari, rag'batlantirish mexanizmlari hamda imtiyozli shart-sharoitlar orqali xodimlarning kasbiy rivojlanishi va motivatsiyasi oshirilishi ko'zda tutilgan.

Bank xodimlarining salmoqli qismini yosh mutaxassislar tashkil etadi. Shu bilan birga, ayollar mehnat faoliyatiga alohida e'tibor qaratilgan bo'lib, jami xodimlarning deyarli yarmi ayollardan iborat. Bu holat mamlakat miqyosida amalga oshirilayotgan ayollarning jamiyatdagi o'rnini kuchaytirishga qaratilgan islohotlar bilan hamohangdir.

Bankning strategik tuzilmasi va xodimlar tarkibiy sifati maxsus tahliliy jadval orqali ko'rsatib berilishi mumkin. "O'zmilliybank" AJ O'zbekistonning eng yirik moliya institutlaridan biri hisoblanib, uning faoliyati mamlakat iqtisodiyotining barcha sohalarini qamrab oladi. Bankning tashkiliy tuzilmasi esa korporativ boshqaruv tamoyillari asosida shakllantirilgan bo'lib, samarali faoliyat yuritish va mavjud resurslardan oqilona foydalanishni ta'minlaydi. Bankning tashkiliy tuzilmasi quyidagi asosiy bo'g'inlardan iborat:

1. Boshqaruv organlari:

- Bank Kengashi
- Bank Boshqaruvi
- Kuzatuv kengashi

2. Markaziy apparat:

- Tahlil va hisobotlar markazi
- Risklarni boshqarish departamenti



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



- Xodimlar bilan ishlash departamenti
- Buxgalteriya hisobi va moliyaviy menejment departamenti
- Axborot texnologiyalari departamenti
- Marketing va mijozlarga xizmat ko'rsatish departamenti
- Yuridik departamenti
- Tashqi iqtisodiy faoliyat boshqarmasi va boshqa bir nechta tarkibiy bo'linmalardan iborat

3. Hududiy filiallar va bo'limlar:

- Respublikaning barcha viloyatlarida faoliyat yurituvchi bank xizmatlari markazlari va ofislarini nazorat qiluvchi bosh boshqarmalar
- 130 dan ortiq bank xizmatlari markazlari va ofislarida

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Bank va bank faoliyati to'g'risidagi Qonun. (Qabul qilingan: 1996-yil 25-aprel, o'zgarishlar bilan).
1. 2. www.nbu.uz – "O'zmilliybank" AJ rasmiy sayti.